



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 4-may, № 88 (9259)


Dushanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## IQTISODIY HAMKORLIK YUQORI DARAJAGA KO'TARILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi doirasida 3-may kuni Samarqandda Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda va bir qator nufuzli delegatsiyalar rahbarlarini qabul qildi.



Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisiga bank Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi O'zbekistonda o'tkazilishini qo'llab-quvvatlagani va ko'rsatgan ko'magi uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasidagi keng ko'lamli o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Hamkorlikni yuksak darajaga ko'tarishga erishilgani chuqur mamnuniyat bilan qayd etildi. O'tgan 30 yilda OTB O'zbekistonning haqiqiy strategik sherigiga aylandi.

Loyihalar portfeli qariyb 16 milliard dollarni tashkil etmoqda, amaliyotlar hajmi bo'yicha O'zbekiston bankning mintaqadagi eng yirik hamkorlaridan biriga aylandi.

Temir va avtomobil yo'llari, energetika va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, suv ta'minoti hamda kanalizatsiya tarmoqlarini yangilash, qishloq xo'jaligi va xususiy sektorni rivojlantirish hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha muhim loyihalar amalga oshirildi va davom etmoqda.

O'zbekiston Prezidenti va bank rahbari sammit doirasida imzolangan OTB bilan sheriklik bo'yicha 2030-yilga qadar bo'lgan

davrga mo'ljallangan yangi dasturga kiritilgan umumiy qiymati 12,5 milliard dollarlik loyihalarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish muhimligini ta'kidladi.

Ipoteka bozori, xususiy sektor, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, inklyuziv ta'lim va inson kapitalini rivojlantirish borasidagi islohotlarni ilgari surish, raqamli innovatsiyalarni joriy etish va maxsus iqtisodiy zonalarda infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi sohalarda hamkorlikda ishlashga kelishib olindi.

Markaziy Osiyo mintaqasida yirik infratuzilmaviy loyihalarni, shu jumladan, bankning mablag'larni safarbar etishdagi yetakchiligini kuchaytirish orqali ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidenti OTB rahbariyati va jamoasiga Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishi muvaffaqiyatli va samarali o'tishini tiladi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasida 2030-yilgacha mo'ljallangan sheriklik dasturini almashish marosimi bo'lib o'tdi.

Koreya Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, iqtisodiyot va moliya vaziri Ku Yun Chxol boshchiligidagi delegatsiya bilan

uchrashuvda O'zbekiston – Janubiy Koreya alohida strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Yuqori martabali mehmon O'zbekiston Prezidentiga Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Yetakchilarning Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Chuqur tarixiy do'stlik rishtalari, o'xshash mentalitet, an'analar va qadriyatlarga asoslangan ikki tomonlama aloqalar izchil rivojlanmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Janubiy Koreya bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

O'zaro savdo va investitsiyalar ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 12 foiz oshdi. Mamlakatimizda qariyb 1 mingta qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda, Koreya investitsiyalarining umumiy hajmi 8 milliard dollardan oshdi. Ushbu mamlakat kompaniyalari uchun maxsus sanoat zonasini tashkil etish masalalari ishlab chiqilmoqda.



Koreya Eksimbanki va uning jamg'armalari bilan ko'p yillik samarali hamkorlik yuqori baholandi. Ular ishtirokidagi loyihalarining umumiy portfeli 2 milliard dollardan oshdi.

Ko'p tarmoqli klinika, kimyo markazi va farmatsevtika parki qurilishi davom etmoqda. Bugun Toshkent – Xiva yo'nalishida birinchi "Hyundai Rotem" poyezdi qatnay boshladi.

O'zbekiston Prezidenti ustuvor yo'nalishlarda yangi investitsiya loyihalarini portfelini shakllantirish va hududlararo almashinuvlarni jadallashtirish muhimligini qayd etdi. Davlat moliyasini boshqarish tizimini raqamlashtirishda Koreya tomoni ko'maklashishga umid bildirildi.

Joriy yil kuz oyida Seul shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan "Markaziy Osiyo – Koreya" sammiti va boshqa oliy darajadagi tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish muhimligi ta'kidlandi.

Yaponiya moliya vaziri Satsuki Katayama boshchiligidagi delegatsiya bilan muloqotda Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) boshqaruvchisi Nobumitsu Xayasi va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) katta vitse-prezidenti Masao Yahara ham ishtirok etdi.

Suhbat avvalida Satsuki Katayama mamlakatimiz yetakchisiga Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil dekabr oyida Yaponiyaga amalga oshirgan tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda yangi davrni boshlab bergani ta'kidlandi.

Muloqot chog'ida iqtisodiy hamkorlikning ijobiy sur'atlari alohida qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, Yaponiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti mamlakatimiz moliya tizimini modernizatsiya qilish, xususan, g'aznachilik sohasiga sun'iy intellektni joriy etish, raqamli moliya transformatsiyasi va ushbu yo'nalishda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha bir qator istiqbolli takliflarni ilgari surdi.

Qayta tiklanuvchi energiya, tibbiyot, axborot texnologiyalari, transport va qishloq xo'jaligi sohaslaridagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni jadallashtirishga kelishib olindi.

"ACWA Power" kompaniyasi rahbari Muhammad Abunayyan boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda sheriklik aloqalarini kengaytirish va qo'shma

loyihalarni jadallashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston "yashil" energetika sohasining asosiy hamkori bo'lgan "ACWA Power" faoliyatini yuqori baholadi. Qayd etilganidek, o'tgan yil dekabr oyida boshlangan yangi investitsiya tashabbuslari, jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish loyihalari belgilangan rejalar asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Muloqot davomida hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, "Yangi Toshkent" xalqaro aeroporti qurilishini boshlash, Farg'ona shahrida ko'p tarmoqli tibbiyot muassasasini barpo etish, IT-parkda zamonaviy ma'lumotlar markazini ishga tushirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida saudiyalik investorlar O'zbekistondagi islohotlar va yaratilgan qulay investitsiya muhiti uchun minnatdorlik bildirib, loyihalarni sifatli va o'z vaqtida amalga oshirishga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Matbuot xizmati suratlari.

## BUYUK MUHADDIS BOBOMIZ MEROSI — BEBAHO MA'NAVIY BOYLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi tadbirlarida ishtirok etish uchun 3-may kuni Samarqand shahriga tashrif buyurdi.

Ezgu qadriyatlarimizga muvofiq, avvalo, Imom Buxoriy majmuasi ziyorat qilindi. Buyuk hadisshunos bobomiz maqbarasida Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi.

Ma'lumki, ushbu qutlug' qadamjo davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Imom Buxoriyning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan ma'naviy merosiga munosib tarzda qaytadan bunyod etildi. Ziyoratchilarga har tomonlama qulay sharoit yaratildi. Bu yil Ramazon hayiti arafasida majmuva yana ziyoratchilar uchun eshiklarini ochib, 60 mingdan ortiq yurtdoshimiz va xorijlik mehmonlar hayit namozini ushbu qutlug' qadamjoda o'qidilar.

Keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari natijasida Imom Buxoriy majmuasi ilgari bir kunda 12 ming

ziyoratchiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, bugungi kunda 65 ming nafar ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega.

Ma'lumotlarga ko'ra, qutlug' qadamjo ochilganidan so'ng bir oy ichida buyuk muhaddis bobomiz maqbarasini 1 milliondan ortiq yurtdoshimiz va xorijiy fuqaro ziyorat qildi.

Prezidentimiz majmuaga tashrif buyuruvchilarga yanada qulay sharoitlar yaratish, ibodatlarini ado etishlari, buyuk muhaddis bobomiz merosi bilan yaqindan tanishishlari uchun barcha imkoniyatlarni kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shuningdek, majmuaga avtotransportda keluvchilar uchun to'xtash joylarini kengaytirish, ziyoratchilar sayr qiladigan hududlarni yanada obod

qilish, ularning dam olishi uchun tabiiy va qulay muhit yaratish, bu boradagi ishlarni doimiy tahlil qilib borish, har olti oyda majmuada ziyoratchilar uchun yaratilgan sharoitlarni o'rganib, qo'shimcha choralarni belgilab borish muhimligi ta'kidlandi. Butun yurtimizdan imom-xatibalarni majmuaga taklif qilib, malakasini oshirish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari ziyorat madaniyatini yuksaltirish, muqaddas qadamjolar va mozorlarni obod saqlash bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, bunday maskanlarda kelib-ketuvchilar uchun munosib sharoit yaratish muhim ekanini, o'tganlar xotirasiga hurmat ruhini kuchaytirish yosh avlodning o'zligini anglashi va ma'naviy tarbiyasida muhim omil bo'lishini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-may kuni

Samarqandda Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi ochilish marosimida nutq so'zladi.

Yig'ilishning bosh mavzusi – "Taraqqiyot chorahalari: mintaqaning o'zaro bog'liq kelajagini ilgari surish". Forum global va mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini muhokama qilish uchun muhim xalqaro platforma bo'ladi.

Ishtirokchilar asosiy e'tiborini "yashil" transformatsiya, energetik o'tish, raqamlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, oziq-ovqat xavfsizligi, sanoatda yetkazib berish zanjirlarining barqarorligi va boshqa masalalarga qaratadilar.

Sammitda bank bilan hamkor mamlakatlar delegatsiyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki,

Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki va boshqa institutlar rahbarlari va xodimlari hamda xorijiy hukumatlarning 2 ming nafarga yaqin vakillari, yetakchi kompaniyalar va banklar, transmilliy korporatsiyalar top-menejerlari hamda nufuzli ekspertlar ishtirok etadi.

O'zbekiston 1995-yildan buyon Osiyo taraqqiyot bankining a'zosi bo'lib, uning eng yirik hamkorlaridan biri hisoblanadi: loyihalar portfellingini umumiy hajmi qariyb 16 milliard dollarni tashkil etmoqda. Mamlakatimiz bankning yillik yig'ilishiga ikkinchi bor mezbonlik qilmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
G'olib HASANOV,  
O'zA muxbirlari.

### Aks sado

## IKKI TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIK YANADA KENGAYADI

Xorijiy ekspertlar Toshkentdagi oliy darajadagi O'zbekiston – Chexiya sammiti yakunlari haqida

Карлос Уриарте САНЧЕС, Испаниядаги Умуевропа иттифоқи президенти, профессор:

– Chexiya Bosh vazirining O'zbekistonga rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlار rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlار izchil mustahkamlanib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan puxta o'ylangan va izchil siyosat tufayli mamlakat tashqi siyosati ochiq, pragmatik va o'zaro manfaatli hamkorlikka yo'naltirilgan holda tus oldi. Bu Yevropa davlatlari

jumladan, Chexiya bilan hamkorlikni faollashtirishga va uni aniq iqtisodiy hamda investitsiyaviy loyihalar bilan boyitishga imkon berdi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi hamkorlik nafaqat mustahkam tarixiy asosga, balki yuqori darajadagi faol siyosiy muloqotga ham taynadi. Muntazam aloqalar va o'zaro tashriflar tomonlar o'rtasidagi ishonch yuqori ekanini hamda sheriklikni rivojlantirishga intilishni ko'rsatadi.



### O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga

## ISTIQLOL — TARAQQIYOT VA FAROVONLIK POYDEVORI

Mustaqillik – xalqimizning eng katta yutug'i hamda asrlar davomidagi orzu-umidlari, ozod va farovon hayotga intilishlarining ifodasi. Bugun aynan shu buyuk ne'mat tufayli O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilab, jahon hamjamiyatida tobora mustahkam va munosib o'rin egallab borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Milliy suverenitet va davlat mustaqilligi har qanday mamlakat taraqqiyotining hal qiluvchi asoslaridan hisoblanadi. Zero, mustaqillik davlatning o'z taqdirini o'zi belgilashi, ichki va tashqi siyosatini erkin amalga oshirishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Suverenitet esa xalqaro maydonda teng huquqli subyekt sifatida shakllanishiga, uning manfaatlarini va qadriyatlarini himoyalashga xizmat qiladi. Ayni shu omillar jamiyatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy

o'sishi, ijtimoiy farovonligi va madaniy rivojini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yil mamlakatimiz hayotida muhim sana – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi keng nishonlanadi. Bu bo'yicha Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.



## KENGASH VAZIRLIKKA SO'ROV YUBORISHGA QAROR QILDI

Har bir mamlakatning energetik mustaqilligi iqtisodiyotning barqarorligi hamda aholining farovonligini oshirib, investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlaydi. Jamiyatda ishbilarmonlik muhiti jadal rivojlanib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari qamrovi kengayadi.

### Mahalliy Kengashlarda

Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmog'i hamda aholi xonadonlarini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadiga qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, eng ilg'or xorijiy tajriba, zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlarnalmar va texnologiyalar asosida elektr energetikasi tarmog'ida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, Prezidentimizning 2018-yil 23-oktabrdagi "Elektr energetikasi tarmog'ini jadal rivojlantirish va moliyaviy

barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tizimda davlat boshqaruvining tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga yo'l ochib, shu asosda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyuldagi "Elektr energiyasi, shu jumladan, energiyaning qayta tiklanadigan manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.









# BARQAROR RIVOJLANISHNING ISHONCHLI POYDEVORI

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi boshqaruv qarorlarini aniq hisob-kitob, puxta tahlil va ishonchli maʼlumotlar asosida qabul qilishni talab etmoqda. Aholining soni va tarkibi, bandlik hamda turmush sharoitlari, migratsiya jarayonlari, uy-joy fondi, taʼlim va sogʻliqni saqlash tizimiga ehtiyojlar, shuningdek, qishloq xoʻjaligida yer-suv resurslaridan foydalanish, ekinlar tarkibi va chorvachilik salohiyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlar davlat siyosati uchun tayanch manba hisoblanadi.

Aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish aynan

shunday manbani yaratadigan, mamlakat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega eng yirik statistik tadbirlardan biridir. Uning natijalari hududiy rivojlanish dasturlarini manzilli rejalashtirish, infratuzilma va ijtimoiy imkoniyatlarni toʻgʻri yoʻnaltirish, resurslarni adolatli taqsimlash, agrar siyosatda esa oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va yer-suvdan foydalanish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu maʼnoda, roʻyxatga olish – barqaror rivojlanishning amaliy poydevori, davlat boshqaruvida shaffoflik va samaradorlikni taʼminlaydigan eng muhim jarayon.



muvaffaqiyatli yakunlanganini eʼtirof etdi.

– Men Oʻzbekistondagi roʻyxatga olish jarayonlarini internet orqali muntazam kuzatib bordim. Shuni taʼkidlash joizki, Oʻzbekistonda mamlakat sharoitiga moslashtirilgan hamda xalqaro metodologiyaning oʻziga xos uygʻunligiga asoslangan ushbu ulkan jarayon yuqori qiziqish, puxta tashkilotchilik va uyushqoqlik bilan oʻtdi. Aytishim kerak, Oʻzbekiston bu borada juda katta natijani qayd etdi. Eng muhimi, yurtdoshlaringiz maʼlumotlarni ishonch bilan taqdim qildi. Jarayonlar haqida toʻliq maʼlumot berib borildi. Bu esa, oʻz navbatida, aholining hukumatga, davlat tashkilotlariga va yurt kelajagiga ishonchi yuqori ekanidan dalolat beradi, – dedi u.

## Bu soliqla tortish emas

Aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish jarayoni ayrim fuqarolar tomonidan notoʻgʻri talqin qilinmasligi lozim. Ushbu tadbirning asosiy va yagona maqsadi – statistik maʼlumotlarni shakllantirish, ularni tahlil qilish va umumlashtirilgan holda davlat rejalashtirishda foydalanishdan

qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.

Muhimi shundaki, roʻyxatga olish jarayonida yigʻilgan shaxsiy maʼlumotlar soliq organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yoki boshqa davlat va nodavlat tashkilotlariga uzatilmaydi. Bu talablar Oʻzbekiston Respublikasining “Aholini roʻyxatga olish toʻgʻrisida”gi hamda “Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi qonunlar bilan qatʼiy mustahkamlangan. Mazkur qonunlarga muvofiq, roʻyxatga olishda ishtirok etuvchi barcha mutaxassislar maʼlumotlar maxfiylikni saqlash boʻyicha shaxsiy javobgarlikka ega.

## Bugungi taraqqiyot va yorqin kelajak uchun

Aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish Oʻzbekistonning barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega, butun jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan umumdavlat tadbiridir. U demografik va iqtisodiy manzarani aniq koʻrsatadi, resurslarni adolatli taqsimlashga, ijtimoiy xizmatlarni manzilli rejalashtirishga, qishloq xoʻjaligida oziq-ovqat xavfsizligini kuchaytirishga, investitsiya va infratuzilma borasida qabul qilinadigan qarorlarni dalillar bilan asoslashga imkon beradi.

Roʻyxatga olish Yangi Oʻzbekistonning kelajagini aniq dalillar asosida barpo etish yoʻlidagi umumiy masʼuliyatdir. Shu bois jarayon yakunlanishiga bilan yakuniy raqamlar darhol eʼlon qilinmaydi. Ayrim davlatlar tajribasida natijalar 2-3 yil davomida qayta ishlanib, bosqichma-bosqich eʼlon qilingan holatlar ham mavjud. Bizda esa maʼlumot kiritish jarayonining oʻzidayoq real vaqt rejimida mantiqiy nazorat mexanizmlari joriy etilgani sababli qayta ishlash jarayoni nisbatan tezlashadi.

Shu asosda dastlabki natijalar 2026-yil 1-iyuliga qadar, yakuniy va toʻliq tahlil etilgan maʼlumotlar esa 2027-yil 1-iyuliga qadar eʼlon qilinishi rejalashtirilgan. Eʼlon qilinadigan raqamlar – shunchaki yigʻilgan maʼlumot emas, balki bir necha bosqichli tekshiruvdan oʻtgan, aniqlashtirilgan va rasmiy tasdiqlangan ishonchli natijalar boʻladi.

Roʻyxatga olish natijasida mamlakatning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy holatini har tomonlama aks ettiruvchi ishonchli maʼlumotlar bazasi shakllanadi. Jumladan, demografik koʻrsatkichlar, aholining ijtimoiy holati, uy-joy sharoitlari, qishloq xoʻjaligi faoliyati, hududiy rivojlanish darajasi boʻyicha maʼlumotlar toʻplanadi. Mazkur maʼlumotlar umumlashtirilgan statistik koʻrinishda tahlil etiladi hamda maktab, bogʻcha, shifoxona, yoʻl kabi ijtimoiy obyektlarni qayerda va qanday quvvatlarda qurish zarurligini belgilash, shuningdek, kelgusi taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqishda mustahkam asos boʻlib xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur tadbir mamlakatning bugungi holati va kelgusi rivoji uchun muhim strategik axborotni shakllantirishda tarixiy voqeilik hisoblanadi.

**Behzod HAMROYEV,**  
Milliy statistika qoʻmitasi raisi.

## YANGILIKLAR xabarlar

## TAFSILOTLAR

## Hosil bahorgacha qayta ishlanmoqda

Bir paytlar Mirishkor tumani haqida gap ketsa, faqat paxta va gʻalla yetishtirishga ixtisoslashib qolgan, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan bir hudud gavdalanardi. Bugun esa tuman yangi qiyofa kasb etdi, bu yerda oʻnlab zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari qad rostladi.



Ana shunday quvvatlardan biri “Temur hamkor plast” masʼuliyati cheklangan jamiyatiga qarashli boʻlib, korxonada yiliga 1,5 ming tonna pomidorni qayta ishlab, tomat pastasi, pomidor sharbati va ketchup mahsulotlari tayyorlash imkonini mavjud.

– Korxonamiz 2024-yilda ishga tushirilgan, – deydi MCHJ rahbari Oʻtkir Umarov. – Oʻtgan yilgi mavsumdan yetarli xomashyo zaxira qilib, toʻliq quvvat bilan ishga kirishdik.

Eʼtiborli tomoni shundaki, korxona tomonidan yoz va kuzgi mavsumda mahsulot yetishtiruvchilardan shartnoma asosida qabul qilinib, dastlabki qayta ishlangan xomashyo maxsus idishlarga joylab qoʻyiladi. Bu uzoq vaqt sifatli hamda qulay saqlash imkonini bermoqda.

Qish va bahor oylarida esa zaxiralangan xomashyo keyingi bosqichda qayta ishlanib, bozor talabidan kelib chiqqan holda qadoqlanib, isteʼmolchilarga yetkazib berilyapti. Natijada korxonaning barqaror ishlashi bilan bir qatorda, mahsulot tannarxining oshib ketmasligini taʼminlashga ham erishilyapti.

**Jahongir BOYMURODOV**  
 (“Xalq soʻzi”).

## Murakkab jarrohlik amaliyoti

Xorazm viloyati koʻp tarmoqli tibbiyot markazida buyrak koʻchirib oʻtkazish amaliyoti yoʻlga qoʻyilgan aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim oʻrin tutmoqda. Eʼtiborli jihati, bugungi kunda bunday murakkab jarrohlik amaliyotlarini toʻlaligicha mahalliy mutaxassislar bajaraypti.

Yaqinda markazning abdominal xirurgiya boʻlimida yana bir bemorga buyrak koʻchirib oʻtkazildi. Ushbu murakkab jarayon nafaqat bir inson taqdirini ijobi tomonga oʻzgartirdi, balki hudud tibbiyotida transplantologiya yoʻnalishida erishilayotgan yutuqlarning yana bir yorqin namunasi sifatida eʼtirof etildi.

Shovot tumanida yashovchi, uzoq vaqtdan buyon rejalı gemodializ muolajasiga muhtoj boʻlgan bemor M. Botirovga uning singlisi donorlik qildi. Amaliyot malakali mutaxassislar jamoasi tomonidan amalga oshirildi. Bunday jamoaviy yondashuv yuqori samara va muvaffaqiyat garovi ekanı yana bir bor oʻz tasdigʻini topdi. Eng muhimi, bu kabi operatsiyalar insonlarga yangi hayot baxsh etib, umid hamda ishonchini qayta tiklamogʻda.

**Odilbek ODAMBOYEV**  
 (“Xalq soʻzi”).

## Binolar xavfsizligini baholovchi texnologiya

Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti yetakchi olimlari tomonidan yangi ilmiy loyiha ishlab chiqildi.

Mazkur loyiha doirasida ikki komponentli seysmodatchik yaratilib, u bino-inshootlarning seysmik mustahkamligini baholashda qoʻllaniladi. Ushbu seysmodatchik zilzilalar vaqtida binolar va inshootlarda yuzaga keladigan tebranishlarni aniqlash hamda qayd etish, shuningdek, seysmorazvedka ishlari, muhandislik stansiyalari tarkibidagi seysmologik tadqiqotlarda keng qoʻllanilishi mumkin.

Bundan tashqari, u sanoat portlashlari natijasida yuzaga keladigan seysmik toʻlqinlar intensivligini baholashda hamda ishlab chiqarish jarayonlarida mashina va mexanizmlar tebranishlarining obyektlarga taʼsirini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

Fanlar akademiyasidan maʼlum qilishlaricha, ushbu ishlanma boʻyicha ixtiro patenti olingan.

“Xalq soʻzi”.

## 9-may – Xotira va Qadrlash kuni

## «TAQDIR BIZNI ERTA ULGʻAYTIRDI»

Urush boshlanganida Abdurahmon endigina 10 yoshga kirgan, tengdoshlari bilan koʻcha changitib yurgan boʻz bola edi. Kattalar yurt himoyasi uchun urushga ketgach, barcha qiyinchilik ayollar, bolalar va keksalar zimmasiga tushdi. Bolalar kattalardek mehnat qilishga majbur edi.

– Bizning bolaligimiz front orti azob-uqubatlarga gʻarq boʻlib ketgan, – deydi Fargʻona tumanidagi Toshkoʻprik mahallasida yashovchi 95 yoshli Abdurahmon ota Abdulhakimov. – Kutilmagan sinovlar, achchiq taqdir bizni erta ulgʻaytirdi. Qoʻlimizga oʻyinchoq emas, mehnat qurollari berildi. Urush yillarida front ortidagi ogʻir mehnat murgʻak qalblar uchun hayot-mamot masalasiga aylandi.

Oilalar bor-budini frontga joʻnatar, qoʻl uchida zoʻrgʻa kun koʻrishga majbur edi. Bir kosa atala, yarimta zogʻora non uchun kun boʻyi ogʻir mehnat qilishga toʻgʻri kelgan. Bir-ikki kun ishga chiqmasangiz, och qolish hamda kasallikdan vafot etish hech gap emasdi.

Otaxon Vodil qishloqʻidagi maktabda 8-sinfga taʼlim olgan, xolos. Keyin yosh yigitni hayotning oʻzi katta maktabda tarbiyaladi. U 45 yil davomida jamoa xoʻjaligida haydovchi boʻlib ishladi. Fargʻona

shahridan Fargʻona tumani markazi – Vodilga dastlab oddiy aravalarida, keyin transportda yonilgʻi tashigan.

– Sharoit taqzosiga koʻra, biz foydalanadigan idishlar eski va yoriq boʻlardi, – deya xotirlaydi qahramonimiz. – Shu bois koʻpincha idishlar yoʻlda teshilib, yonilgʻi yerga oqib ketardi. Shuning uchun belimizga doim sovun bogʻlab yurardik. Bu yoʻlda idish qayeridan yorilsa, oʻsha joyini sovun bilan yamab, yana yoʻlda davom etish imkonini berardi.

Oʻsha yillari qishloq xoʻjaligi yumushlari nihoyatda mashaqqatli boʻlib, texnika yetishmasligi sababli yerlar, asosan, hoʻkiz bilan haydalgan. Abdurahmon ota ham gektarlab yerlarni omoch qoʻshilgan hoʻkiz bilan haydab, qora terga botgan. U doim qoʻllari pufak-pufak boʻlib shishib, ogʻriq berganini, yelkalari xuddi botmon toshdek ogʻir yurganini yaxshi eslaydi.

– Baʼzan jamoa xoʻjaligidan ikki kilo un olish uchun ham bir necha hujjat tayyorlab, uzoq navbat kutishga toʻgʻri kelardi, – deya xotirlaydi otaxon ogʻir xoʻrsinib. – Shuning uchun nonning bir ushugʻi ham koʻzga surtiladigan darajada tabarruk edi. Bugungi toʻkinchilik, moʻl-koʻlchilikni koʻrib, koʻzimga yosh keladi. Shu kungacha yetganlar bor, yetmaganlar bor, deb oʻzimga taskin beraman.

Dolgʻali zamonlar sinovidan omon chiqqan Abdurahmon ota 6 nafar farzandni elu yurtga qoʻshdi. Bugungi kunda 22 nafar nabira, 55 nafar chevara va 2 nafar evarasiga bosh boʻlib, baxtli keksalik gashтини surmoqda. Front ortidagi fidokorona mehnati eʼtiborga olinib, 2025-yili “Ikkinchi jahon urushidagi gʻalabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali bilan taqdirlandi.

Ayni kunlarda mazkur xonadondan yosh avlodning qadami uzilmaydi. Mahalla faxri boʻlgan nuroniy hamyurtimiz barchaga nasihat qiladi, bugungi tinch-farovon kunlarning qadriga yetishga undaydi.

**Botir MADIYOROV**  
 (“Xalq soʻzi”).

## Xalqaro tajriba va eʼtirof

Roʻyxatga olishni tashkil etishda xalqaro tajribani oʻrganish va tavsiyalarni inobatga olish alohida ustuvor yoʻnalish sifatida belgilandi. Jumladan, Belarus, Kanada, Gruziya kabi mamlakatlarning roʻyxatga olish tajribasi tahlil qilindi. Raqamli platformalar, logistika, respondentlar bilan muloqot, maʼlumotlarni qayta ishlash va nazorat mexanizmlarining samarali jihatlari oʻrganildi.

BMTning Aholishunoslik jamgʻarmasi (UNFPA) hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti (FAO) tomonidan roʻyxatga olish tadbiri yuzasidan ijobiy xulosalar va tavsiyalar olindi.

Jahon banki guruhining Vashington shahridagi shtab-kvartirasida boʻlib oʻtgan xalqaro seminarida Meksika Statistika va geografiya milliy instituti (INEGI) vakili Mauricio Rodriges Oʻzbekistonda aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish jarayoni

## BULOQBOSHILIK TADBIRKOR

Buloqboshilik izlanuvchan fermerlardan biri Muhammadali Boʻronov uzumchilikka ixtisoslashtirilgan mahallada tugʻilib oʻsgan. Bolaligi uzumzorlar orasida kechgani bois sohaning miridan-sirigacha biladi. Uzumchilik bilan shugʻullana boshlaganiga ham oʻn olti yil boʻldi. U paxtani plyonka ostida parvarishlagan fermerlarni koʻrgan, ammo oʻzi ham kun kelib tokni plyonka ostida yetishtirishni xayoliga keltirmagan edi.

## Yangilik

– Oʻtgan yili 15 sotix issiqxona sharoitida tajriba sifatida uzum yetishtirib koʻrdik, – deydi M. Boʻronov. – Natija kutilgandan yaxshi boʻldi. Anʼanaviy usulda parvarishlangan uzumlarga nisbatan hosil 1,5 oy oldin yetildi. Bu esa bozorda narx yuqori boʻlgan davrga toʻgʻri keladi. Shu kichik maydondan 300 kilogramm hosil olib, har bir kilosi ni kamida 80 ming soʻm dan sotdik. Joriy yilda esa yarim tonna hosil olishni koʻzlab turibmiz.

Eʼtiborlisi, bu tajriba faqat uzum hosili bilan cheklanib qolmadi. Fermer tok bargidan ham daromad oldi, yaʼni ichki bozorga kavartak uchun barg chiqarib qoʻshimcha daromad manbaini yaratdi. Hozirgi kunda Muhammadali Boʻronov xoʻjaligida jami 12,8 gektar maydonda tok parvarishlanmoqda. Oʻtgan yili 180 tonna hosil olindi. Koʻchatlar hali novdaligini hisobga olsak, bu koʻrsatkichning yanada oʻsishi tabiiy. Xoʻjalikda 12 nafar doimiy ishchi mehnat qilayotgan boʻlsa, mavsum paytida ularning soni 30 nafardan ortadi. Demak, bu faoliyat nafaqat daromad manbai, balki aholi bandligini taʼminlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda mahsulot, asosan, ichki bozorda sotilyapti. Biroq fermer joriy yildan boshlab Qirgʻiz Respublikasiga eksportni yoʻlga



qoʻyishni rejalashtirgan. Bu esa uning faoliyati yangi bosqichga koʻtarilayotganidan dalolat beradi.

Aslida har qanday yutuq izlanish, tajriba va uzluksiz harakat samarasidir. Bir qatorda oddiy tuyulgan plyonka ostida uzum yetishtirish tajribasi ham shu intilishlarning amaliy ifodasidir.

**Saminjon HUSANOV**  
 (“Xalq soʻzi”).

2027-yildan sholi yetishtirishda anʼanaviy (sepma) usuldan toʻliq voz kechilib, sholini faqat lazerli tekislangan maydonlarga koʻchat usulida hamda zamonaviy don ekish seyalkalari orqali ekish tartibi joriy etiladi.





Yurtdoshimiz Javohir Sindorovning Kiprda bo'lib o'tgan FIDE Da'vogarlar turnirida erishgan g'alabasi milliy shaxmatimiz tarixida, tom ma'noda, katta natija bo'ldi. Musobaqa davomida u jahonning eng kuchli grossmeysterlariga qarshi munosib kurash olib bordi va ohkolar hamda g'alabalar soni bo'yicha yangi rekordlarni qayd etdi. Bu zafar yuksak iroda,

mustahkam ishonch va intellektual salohiyatning yorqin ifodasi sifatida tarix sahifalariga muhlrandi. Mazkur voqelik misolida sportning xalqni jipslashtirish, uni yagona maqsad atrofida birlashtirishdek beqiyos qudrati yana bir bor yaqqol namoyon bo'ldi. Ikki haftadan ziyod davom etgan turnir mobaynida Javohirning har bir partiyasi yurtdoshlarimiz

toimonidan katta qiziqish va hayajon bilan kuzatib borildi. Shaxmat olami vakillari, mutaxassislargina emas, balki turli sohalarda mehnat qilayotgan insonlar – ziyolidan tortib oddiy ishchigacha, hatto olis hududlarda dala tashvishi bilan band bobodehqonlargacha – barcha o'zini bu jarayonning bir bo'lagi sifatida his etdi.



### Noyob qobiliyat sohibi

Javohir Sindorovning FIDE Da'vogarlar turniridagi ishtiroki va tarixiy g'alabasi dunyo shaxmat olamida katta aks sado berdi. Jahon ommaviy axborot vositalari, turli sport saytlari va ijtimoiy tarmoqlar o'zbekistonlik yosh grossmeysterining o'ziga ishonchi yuqoriligi, o'ziga xos o'yin uslubi, irodasi mustahkamligi, ruhi balandligi haqida bong urmoqda. Xususan, FIDE o'z sahifasida Javohirning shu yil oxirida jahon shaxmat toji uchun bo'ladigan musobaqa oldidan "juda yaxshi pozitsiya"da turganini yozdi. "Sputnik" nashri ma'lumotiga ko'ra, AQSH vakili bo'lgan taniqli gross-meyster Levon Aronyan Javohir Sindorov haqida gapirib, raqiblar go'yo unga "o'zi xohlaganini qilishga" imkon berib ko'rayotgandek tuyulishini aytgan, uning taktik va psixologik bosimdan deyarli ta'sirlanmaydigan o'yinchi ekanini ta'kidlagan. Zamonaviy shaxmatning tirik afsonasi Magnus Karlsenning bahosi, ayniqsa, e'tiborli. U Sindorovni "fundamental jihatdan mustahkam", "har qanday pozitsiyani o'ynay oladi" va "juda, juda iqtidorli" deb ta'rifladi.

Rossiya shaxmat federatsiyasi vitse-prezidenti Sergey Smagin "RIA Novosti"ga bergan izohida Sindorovning ushbu turnirdagi muvaffaqiyatli ishtirokini Fisher davridan beri eng shov-shuvli yutuq sifatida baholadi. Shuningdek, sobiq jahon chempioni Anatoliy Kaprovning aytishicha, so'nggi yillarda Hindiston va O'zbekistonda "kutilmagan iste'dodlar kurtaklari" paydo bo'lgan va ular juda ko'p.

Yirik nashrlarda ham u haqda alohida yozilmoqda. "Reuters" vakillari Javohir Sindorovning turnirdagi startlarini "hayratlanarli" deb atadi. "The Wall Street Journal"da esa sportchimiz dunyoning eng kuchli grossmeysterlarini birin-ketin mag'lub etayotgan 20 yoshli noyob qobiliyat sohibi sifatida tasvirlangan.

Darhaqiqat, Javohir Sindorov – Yangi O'zbekistonning haqiqiy javohir o'g'loni. U o'zining olamshumul yutuqlari bilan xalqimizning nafaqat ko'nglini, balki milliy g'ururini ham osmon qadar yuksaltirdi, yurtdoshlarimiz qalbidagi iftixor va ishonch tuyg'ularini mustahkamladi. Shubhasiz, sportchimizning FIDE Da'vogarlar turniridagi g'alabasi milliy shaxmatimiz tarixida mutlaqo yangi bosqich boshlanganining amaliy tasdig'idir. Bu – oddiy sport yutug'i emas, balki Yangi O'zbekistondagi tarixiy ildizlardan kuch olayotgan keng ko'lamli ma'naviy va intellektual yuksalishning, tafakkur Renessansi ilk samaralarining yorqin ifodasidir.

**Dilshod KARIMOV**  
("Xalq so'zi").

## “Haj – 2026” Ziyoratchilarning ilk guruhlari muborak safarga kuzatildi

Poytaxtimizdagi “Novza” masjidida “Haj – 2026” mavsumining ilk ziyoratchilarini kuzatish marosimi bo'lib o'tdi.

Yuzida quvonch, tilida shukrona bilan muqaddas zaminga oshiqayotgan hamyurtlarimiz ziyoratlarini eson-omon ado etib, yurtimizga qaytishini so'rab, duolar qilindi.

Yaqinlarini muborak safarga kuzatayotgan yurtdoshlarimizning nighohida havas hamda sog'inch tuyg'ulari balqiydi: ular mana shunday saodatli kunlar va Ka'batulloh ziyorati o'zlariga ham nasib etishini chin dildan niyat qilgan bo'lsa, ajabmas.

Aytish joiziki, O'zbekistondagi 2026-yilgi haj mavsumi 2-maydan boshlandi. 18-mayga qadar har kuni mamlakatimizning 9 ta hududi – Toshkent, Namangan, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Termiz va Urganch shaharlaridagi aeroportlardan Saudiya Arabistonining Madina shahriga to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar amalga oshiriladi.

– Yurtimizda diniy-ma'rifiy sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli so'nggi yillarda mo'min-musulmonlar islomning barcha ruknlari, xususan, haj amallarini to'la-to'kis ado etish baxtiga noil bo'lmoqda, – deydi O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi o'rinbosari Muhammadolim Muhammadsididov. – Xususan, bu yil ham haj tadbirlarini tashkil qilish bo'yicha keng ko'lamli tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Ziyoratchilar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, meningit kasalligiga qarshi emlandi. Ularga rasmiy haj vizalari va boshqa zarur hujjatlar rasmiylashtirib berildi.

Muborak safar qatnashchilariga



guruh rahbarlari mas'ul qilinib, safar oldi mashg'ulotlari o'tkazilyapti. Ayol ziyoratchilar uchun ham alohida ayol mutaxassis va shifokorlar ajratilgan. Shuningdek, har bir ziyoratchiga “Haj – buyuk ibodatdir” qo'llanmasi, sumka, nimcha, termos, soyabon, sim-karta, quvvatlagich taqdim etilmoqda. – Quvonch va hayajonimizning cheki yo'q, – deydi ziyoratchilardan biri Nabi Vahobov. – Yaratganga behisob shukrki, orzu-armonlarimiz ushalmogda. Haj ziyoratiga yo'lga chiqaypmiz. Biz uchun yaratilgan qulayliklardan behad xursandmiz. Bularning barchasi Prezidentimiz tomonidan yurtimizda tatbiq etilgan "Inson qadri uchun, inson baxti uchun!" degan ezgu tamoyilning amaliy ifodasi. Nasib qilsa, ziyoratimiz davomida Allohdan yurtimizdagi tinchlik-omonlik, taraqqiyot va farovonlikni bardavom etishini so'rab, duolar qilamiz.

Makka shahrida ziyoratchilarning asosiy qismi bir hududdagi mehmonxonalarga joylashtiriladi. Shuni ham eslatish zarurki, yurtdoshlarimiz bugungi murakkab zamonda Saudiya Arabistoni tomonidan belgilangan yangi qonun-qoidalarga qat'iy amal qilishi, ogohlilni oshirishi shart.

Ayni paytda Saudiya Arabistonida bo'lib turgan “Haj – 2026” mavsumi ishi guruhlari hamkor tashkilotlar bilan birga mehmonxonalar, Mino va Arofat vodiylarida ziyoratchilarni ibodatlarini bekam ko'st ado etishi uchun munosib sharoitlar tayyorlash bo'yicha faol ish olib bormogda.

O'zbekiston musulmonlari idorasining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda haj amallari haqidagi suhbatlar, tavsiyalar hamda maqolalar taqdim etilayotir.

“Xalq so'zi”.

# “YURTIMNING TOJIDA YANGI JAVOHIR”

Javohir Sindorovning Kiprda o'tgan FIDE Da'vogarlar turnirida g'olib bo'lgani milliy shaxmatimiz tarixidan yorqin sahifa o'laroq joy oldi. Bu zafar nafaqat sport muvaffaqiyati, balki yurtimiz yoshlarining intellektual salohiyati, mustahkam irodasi va kelajakka bo'lgan ishonchining amaliy tasdig'i sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

## Tahririyat pochtasidan

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev g'olib hamyurtimizni samimiy tabriklar ekan, uning yutug'ini yuksak baholab, "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirladi. Bu e'tirof mamlakatimizda yosh avlodga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir yorqin ifodasi bo'lib, ular qalbidagi yangi orzu-intilishlar, ertangi kungacha ishonch uyg'otmoqda. – Javohir Sindorovning olamshumul g'alabasi biz kabi yosh shaxmatchilar uchun chinakam o'rnak, – deydi shaxmat bo'yicha O'zbekiston ayollar terma jamoasi a'zosi, jahon chempioni Afro'za Hamdamova. – Unga xalqimiz, Prezidentimiz tomonidan ko'rsatilgan ehtiromdan g'ururlanib ketdik. Bu bizni ham yangi g'alabalarga ruhlantiradi. Yaqinda Serbiyada yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida g'olib bo'lganim so'zlarim isboti.

Tarixiy g'alaba yurtimiz va jahon ommaviy axborot vositalarida keng aks sado berdi. Turli chiqish va munosabatlarda Yangi O'zbekistonda "oltin avlod"

kamol topayotgani alohida ta'kidlanmoqda. Bu esa izchil va oqilona yuritilayotgan yoshlar siyosatining amaliy samarasi ekaniga yaqqol dalildir. – G'alaba muborak bo'lsin! – deya tabrik yo'lladi Yoshlar ishlari agentligi direktori, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi raisining birinchi o'rinbosari, senator Alisher Sa'dullayev. – Javohirning g'alabasini Nyu-Yorkdagi BMThing Bosh qarorgohi oldida nishonlayapmiz. Albatta, bunda ramziy ma'no bor. O'rganizmda mustaqil O'zbekistonimizning muazzam bayrog'i mag'rur hilpirab turibdi. Javohir ham Vatanimizning milliy tug'ini mana shunday jahon arenasida baland hilpiratib, ko'nglimizni iftixorga to'ldirdi.

Shubhasiz, bu g'alaba sportchimizning oila a'zolarini cheksiz quvontirdi. – Nabiranning har bir o'yinini oila a'zolarimiz bilan birgalikda diqqat bilan kuzatib bordik, – deydi Javohirning buvisi Jamila Sindorova. – Uning turnir g'olibi bo'lgani ayonlashgan o'sha kuni uyimizda

bayram bo'lib ketdi. Darhol nabiram bilan telefon orqali gaplashdik, uni tabriklar kanman, bizga bergan va'dasining ustidan chiqqanini e'tirof etdim. Chunki yigit kishining so'zi bitta bo'ladi. Javohirga xalqimiz, Prezidentimiz tomonidan berilgan e'tibordan boshimiz osmonga yetdi. Bu biz uchun katta faxr!

Tahririyatimizga kelayotgan dil izhorlari, samimiy she'r va tabriknomalarda ham yurtdoshlarimizning faxr va iftixori mujassam. Ularda sportchimiz tomonidan Vatanimiz nufuzi xalqaro maydonda yanada yuksaltirilgani, xalq qalbidagi g'urur tuyg'usi yanada mustahkamlangani samimiyyat bilan ifoda etilmogda. Jumladan, qashqadaryolik ijodkor Nuriddin Egamov shunday yozadi:

**Qirolicha tojin bezagan olmos –**  
**Ko'hinurga tojin qilimishir da'vo.**  
**Buyuk bobolarim kechmishi o'lmas,**  
**Uning jilosida tovlanmasmi yo'!**  
**Yurtimning tojida yangi Javohir**  
**Porladi, aridi dildan armonim.**  
**Dunyo zo'rlariga oqibat-oxir,**  
**"Kishti!", – dedi,**  
**"Mot!", – dedi**  
**O'zbekistonim!**  
Shoir va jurnalist Nurulloh Ostonning misralarida ham sof, samimiy quvonch tuyg'ulari balqiydi:

### Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-542. 23 409 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



|                                                                                                                                                   |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulqilga qaytarilmaydi.                                                                     |
| Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohumani rasmiylashtirgan tashkilot javohar.                                                                   |
| Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.                                                  |
| Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07. |

|                                                                                                                                                                    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>MANZILIMIZ:</b><br><b>100066,</b><br><b>Toshkent shahri,</b><br><b>Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.</b><br>Navbatchi muharrir F. Bozorov.<br>Musahhih S. Islomov. |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.40 **1 2 3 4 5 6**